

## O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKLARINI TASHKIL ETISH ZARURLIGI VA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Qobilov Islom Azizovich

Toshkent Moliya institute Magistratura va kechki ta'lif fakulteti  
Bank ishi kafedrasi Bank ishi va audit mutahasisligi talabasi

Xalqaro moliya-kredit tashkilotlari bilan, shu jumladan, Islom taraqqiyot banki (ITB) bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim ustuvor yo'nalişlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek - "Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqtisi-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi"

O'zbekistonda islom moliyasini joriy etish bo'yicha ba'zi muammolar paydo bo'lmoqda. Quyida bir qator dolzarb muammolar islom banklari joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda:

- > islom moliyasini jamiyatdagi joriy etuvchi bo'g'indagi muammolar;
- > islom moliyasini joriy etishda an'anaviy banklar o'z mijozlarini kamayishidan hadik sirashi;
- > yurtimizdagagi musulmon bo'lgan aholinining bo'sh turgan aktivlarni an'anaviy banklardan ko'ra, islom banklariga kapital sifatida jalb etish samarali ekanligini to'g'ri baholanmasligi;
- > islom bankchilagini tashkil etish orqali ijtimoiy yordamga muhtoj aholini ham mamlakat iqtisodiyotiga kirib boruvchi eshiklardan biri bo'lishi mumkin;
- > islom moliyasi xizmatlarini joriy etish bo'yicha mukammal huquqiy asos yaratish bo'yicha harakatlar sustligi kabi yetarlicha muammolar islom moliyasi xizmatlarni joriy etishga to'sqinlik qilmoqda.

Musulmonlar olimlarining iqtisodiy qarashlari Qur'onva Payg'ambar s.a.v sunnatlari asosida qurilgan. Lekin Qur'onning o'zida aniq iqtisodiy munosabatlar shakllariga bag'ishlangan qoidalar u qadar ko'p emas. Shuning uchun fiqhda u yoki bu iqtisodiy harakatlarni amalga oshirish to'g'risida ko'rsatma va izohlar emas, balki asrlar osha musulmon fiqhshunoslari ahamiyat qaratgan alohida sharhlar bo'yicha umumiyligi qoidalar muhim o'rinni egallaydi.

Hozirgi davrda Islom investitsiyalarni sug'urtalash va eksportni kreditlash korporatsiyasi ITBga a'zo mamlakatlarning ixtisoslashtirilgan muassasalari bilan, shu jumlada, eksport agentliklari bilan faol hamkorlik qiladi, tadbirkorlik riskini nazorat qilish instrumentlarini taklif qiladi. Ammo, korporatsiya shariat qoidalariga to'g'ri kelmaydigan tijorat shartnomalarini sug'urta qilmaydi.

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning zamona viy bosqichida investitsiyalarni moliyalashtirishning istiqbolli shakli sifatida qaralmoqda. Shu sababli, 2019-yilda alohida qonun — O'zbekiston Respublikasining "Davlat-sheriklik to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonunga ko‘ra, davlat-sheriklik to‘g‘risidadagi bitim doirasida xususiy sherikning va kreditorning manfaatlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi qo‘llab-quvvatlashning subsidiya, aktivlar va mol-mulk tarzidagi quyilmalar, byudjet ssudalari, byudjet grantlari kabi turlarini taqdim etadi.

Shu jihatdan olganda, ITBning davlat-sheriklik mexanizmi O‘zbekiston uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda ITB ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalar uchun davlat-sheriklik asosida moliyaviy resurslarini taqdim etadi.

Shunisi ahamiyatlici, ITB qisqa muddatli moliyalashtirishni amalga oshirishda Murabaxa shaklidan keng foydalanadi. Murabaxa sotib olish va qaytariladigan lizing bo‘lib, ishlab chiqarish korxonalarining aylanma mablag‘larga, shu jumladan, katta hajmdagi xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyojini 24 oygacha muddatga beriladigan moliyalashtirish asosida qondirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda xalqaro islom tashkilotlari, ilmiy hamjamiyat, ta’lim muassasalari, islom bank-moliya muassasa va guruhlari o‘zlarining tor milliy doirasidan tashqariga chiqishi va islom moliyasini muvaffaqiyatli joriy qilgan davlatlar tajribasini aholi va milliy muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar, moliya bozori ishtirokchilari va amaldorlar orasida keng targ‘ib qilishi va shu orqali islom moliyasi mohiyatini qabul qilish va tushunib yetish darajasini oshirishi zarur. Islom moliyasi xizmatlari joriy etilgan davlatlarda samarali va mutadil ishlab kelmoqda. Islom bankchiligini tashkil etish orqali ko‘pchilik qismi musulmon bo‘lgan davlatda, samarali faoliyat yuritish va davlat iqtisodiyotiga sezilarli darajada ta’sir etishi mumkin.O‘zbekistonda islom moliyasini tashkil etish bo‘yicha quyidagilar yechim bo‘lishi mumkin:

- > avvalo mamlakatimizda alohida markaziy islom bankini tashkil etish;
- > mukammal bo‘lgan huquqiy-asosiy bazani yaratish bo‘yicha ommaviy muhokamaga quyish;
- > islom banklarida shar‘iy kengashlarni va turli xalqaro muvofiqlashtiruvchi markazlar (idoralar) tashkil qilish;
- > islom bank-moliya tizimini joriy etgan va islom moliyasi rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratgan mamlakatlarning muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar bilan keng ko‘lmdagi sherikchilik aloqalarini bog’lash.

Har bir yaratilayotgan yangilikni nazorat qilish orqali uni muvofiqlashtirib turiladi. Ya’ni O‘zbekistonda markaziy islom bankini tashkil etish orqali uni tartibga solish, muvofiqlashtirish va samarali faoliyat yuritishda ko‘makchi bo‘lib turmog‘i darkor. Mazkaziy tashkilotda nafaqat ichki balki, tashqi aloqa qilish orqali sohada yuzaga kelayotgan muammolarga yechim topilishi va yangiliklarni joriy etilishi orqali soha rivojida muhim qadam bo‘lishi mumkin. Shar‘iyat kengashini tashkil etish orqali halol va to‘g‘ri bitimlar bo‘layotgani, yangi sheriklar bilan tushuntirish ishlarini olib borish samarali yechim bo‘ladi. Muammolarni anglab yetish va tan olish samarali yechimlar topish yo‘lida boshlang‘ich nuqta hisoblanadi. Bu esa tizimning o‘zi va uning barcha “tarkibiy qismlarini” sog‘lomlashtiradi. Agar yuqorida aytib o‘tilgan

muammolarning hech hal qilishsa, bu - tizimning rivojlanishi va yuksalishida ulkan qadam bo'ladi deb hisoblaymiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. "Oliy Majlisga Murojaatnomasi", 29.12.2020y.
- 2.Qodirova, B. "Analysis of verb terms in Uzbek and Kazakh language schools' manuals." Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems 12.6 (2020): 1125-1129.
- 3.Kadirova, Zulayxo. "INTERNATIONAL LABOR MIGRATION POROCESSES IN UZBEKISTAN." Вісник Національної академії керівних кадрів культури і мистецтв 3 (2018).
- 4.Kadyrova, B. "The Concept of Historical Consciousness and its Interaction with Social Intelligence." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 8: 189-194.
- 5.Турғуновна, Қодирова Бузулайҳо, and Айнур Мархабаевна Бекжанова. "Бадий асарлар воситасида бошланғич синф үқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." Образование 8.9 (2022): 10.
- 6.Turgunovna, Kodirova Buzuloikho. "Gaming technologies to improve the efficiency of the educational process." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 837-839.
- 7.Турғуновна, Қодирова Бузулайҳо, and Айнур Мархабаевна Бекжанова. "Бадий асарлар воситасида бошланғич синф үқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." Образование 8.9 (2022): 10.
- 8.Кодирова, Бузулайҳо Турғуновна. "ФОРМИРОВАНИЕ ВОСПРИЯТИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ." EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY. 2020.
- 9.Kadirova, B. "PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS." harmony 3: 12.
- 10.Кодирова, Бузулайҳо Турғуновна. "Специфика работы над художественно-историческим произведением в начальной школе." Вопросы науки и образования 7 (19) (2018): 213-215.
- 11.Кодирова, Бузулайҳо Турғуновна. "Методологические основы формирования текстовой деятельности у учащихся в процессе постижения художественного произведения." Научные исследования 6 (26) (2018): 78-80.